

O'zim haqimda nimalarni bilaman?



**Mening ismim Akmal.
Men 7 yoshdaman. Men
Toshkentda yashayman.**



**Men Azizaman.
Yoshim 7 da. Men ham
Toshkentda turaman.**



**Mening ismim Umida.
Men ham 7 yoshga
to'ldim. Men Buxoroda
tug'ilganman.**



**Mening ismim Sardor.
Men ham 7 yoshdaman.
Men Namangandan
kelganman.**



**Ismim Jasur.
7 yoshdaman.
Mening ona shahrim – Nukus.**



**Mening ismim Madina.
7 yoshdaman. Men ham
Toshkentdanman.**

1. Ismingiz nima? Yoshingiz nechada?
2. Qayerliksiz?

Men insonman. Men atrofimdagi
olamni o'rganyapman. Men o'ylashni,
eshitishni, gapirishni bilaman. Bilmagan
narsalarimni birpasda o'rganib olaman.



Inson bu dunyoni beshta
yordamchisi orqali o'rganadi. Bu
beshta yordamchi sezgi a'zolaridir.




Eshitish



Ta'm bilish



Ko'rish



Hid bilish



Sezish





Sezgi a'zolarini sanab bering. Ular nima uchun kerak?
Bolalar qaysi sezgi a'zosidan foydalanyaptilar?

